
“ZAKOVAT” INTELEKTUAL O'YINI O'TKAZILDI

Bugun Qo'shtepa tumanida o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan sananing 35 yillik bayrami munosabati bilan “Qadring balanf bo'lsin, ona tilim!” shiori ostida Prezident ta'lim muassalari agentligi tasarrufidagi Qo'shtepa tumani ixtisoslashtirilgan maktabi va 15-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari o'rtasida “Zakovat” intellektual o'yini o'tkazildi.

Jamoalarning hozirjavoblighi, izlanuvchanligi ularning yuksak salohiyatlaridan darakdir. Biroq, har bir kurash o'zining g'olib va mag'lubiga ega. Qizg'in kechgan o'yinning yakuniy natijalariga ko'ra 1-o'rinni 15-umumtalim maktabining "Kosmos" jamoasi, 2-o'rinni Qo'shtepa tumani ixtisoslashtirilgan maktabining "Xamsa" jamoasi egalladi.

G'oliblikni qo'lga kiritgan jamoalar Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasining maxsus diplomi va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.



















2024-10-17 16:42:47